

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QARDOSHLIK OTLARINING LINGVOMADANIY TAVSIFI

Nasrullayev Oloviddin

Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti.

Bugungi integratsiyalashuv jarayonida O'zbekiston hamda jahon xalqlarining umumiy nuqtalari yoki jahon xalqlariga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar tilshunoslik va boshqa sohalarni yangi daliliy materiallar bilan boyishga xizmat qiladi. Til yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: "Biz zamonaviy taraqqiyotning kaliti aynan ilm-fan va ta'limda ekanini chuqur anglab, inson kapitaliga investitsiya kiritishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik.". Bundan tashqari ta'lim sohasi haqida gapirganda O'zbekistonda o'rganilayotgan barcha tillar bilan bir qatorda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda ekanligiga to'xtaladilar. E. Sepirning yozishicha ham: "Til– bu madaniyatni ilmiy o'rganishda yetakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir". O'zbekiston mustaqillikga erishganidan so'ng barcha sohalarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Har sohada yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi kunda globallashtirish munosabati bilan tilda madaniyatlararo o'zaro tushunishga qiziqish ayniqsa yuqori. Til deganda dunyoning har qanday tasviri, har bir millat o'ziga xos bo'lgan dunyo namunasi tushuniladi. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos va o'ziga xosdir.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) insonni ijtimoiy va madaniy hayotidagi uning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalarga ko'ra o'zini o'zi anglashini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko'rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o'rganadi. Lingvokulturologiyaning predmeti o'zaro chambarchas aloqada, muloqotda bo'lgan til va madaniyat sanaladi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N. Teliyaga ko'ra, lingvokulturologiya etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Biroq lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida fanlardir. Etnolingvistika yo'nalishining ildizlari Yevropada V. Gumboldtdan



boshlanib, Amerikada F.Boas, E.Sepir va B.Uorf; Rossiyada D.K.Zelenin, Ye.F.Karskiy, A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskiy va boshqalarlarning izlanishlariga borib taqaladi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda tilshunoslik fanida til birliklarini o'rganishda antropotsentrik yondashuv alohida o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv jihatidan «inson faktori» til birliklarining shakllanishi va rivojlanishida birlamchi faktorlardan biri hisoblanadi. Ushbu antropotsentrik qarashning rivojlanishi natijasida tilshunoslikda bir qator yangi fanlar, jumladan, lingvokulturologiya fani paydo bo'ldi. Til insonning dunyo haqidagi bilimlarini shakllantirishning eng muhim usulidir. Faoliyat jarayonida ob'ektiv dunyoni namoyon etib, shaxs bilish natijalarini so'zlar bilan belgilaydi.

Har bir mamlakatning o'zining urf-odatlari, e'tiqodi, diniy qarashlari mavjud. Mexmondo'stlik tushunchasi azal azaldan o'rganilib kelgan, uning frazeologik tasvirini o'rganar ekanmiz, avvalam bor uning "madaniyati"ga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. O'zbek, rus va ingliz tili madaniyatlari azaldan rivojlangan uzoq va boy tarixga ega. Dunyoda ko'plab xalqlar va madaniyatlar mavjud, ammo biz aniq inglizlarni hech kim bilan aralashmaymiz! Ingliz xalqi garchi ular odatda sovuqqon, qo'pol va oddiy deb hisoblansa-da, aslida ular do'stona, mexmondo'st va sportni juda yaxshi ko'radilar. Qiziqarli kombinatsiya, shunday emasmi? Keling, Angliyadagi urf-odatlar va turmush tarzi haqida ko'proq bilib olaylik, chunki ingliz tilini o'rganayotganda ushbu millat qanday yashashi va nafas olishini anglash kerak. Inglizlar tabiatan xushmuomala va "Please" va "Thank you" deyishdan charchamaydilar. Ular intizomli va ko'chada baland ovoz bilan gaplashmaydilar. Ular avtobusga yoki poyezdga o'tirish uchun turishadi va avtobus bekatida navbat kutishmaydi. Inglizlar uchrashganda qo'l siqishmaydi. Ular hatto fojiali holatlarda ham hissiyotlarni jamoat joylarida ko'rsatmaslikka harakat qilishadi.

Mazkur tillarda turli xil vaziyatlarda foydalanishga ixtisoslashgan lisoniy birliklar, so'zlar, iboralar mavjud. Ushbu atamalar millatlarning hayot tarzi, an'analar, mentalitet, va ayniqsa, insonlarning ichki his-tuyg'ulari, har xil vaziyatdagi munosabatlarning ramziy ishorasi bo'lib xizmat qiladi. Ularni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishga imkon bo'lmagan holda, chet elliklarga aniq va tushunarli bo'lish maqsadida izohlab berilishi kerak. Misol uchun, o'zbek lingvomadaniyatida:

“Keling” (birlikda) yoki “Kelinglar” (ko'plikda)

luqmasi tez-tez uchraydi. Mazkur iboralar ingliz tilida esa:

“Come” (mehmonga kelish taklifi) tariqasida tarjima qilinadi.



Rus tilida esa quyidagicha:

“Приходи”(birlikda) yoki “Приходите”(ko’plikda)

Ma'lumki, til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga ma'daniy- ma'naviy shu bilan birga tarixiy an'analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi. Til milliy madaniyatning xazinasi hamdir. Har bir millat yashayotgan joyning iqtisodiy ijtimoiy tuzumi, san'ati, madaniyati, badiiy adabiyoti, urf – odati, xalq og'zaki ijodini jamlab uni avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy – madaniy semantikasidir. Semantika tillning barcha qatlamlarida: grammatikasida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy madaniy semantikasi tilning harakatdagi birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar va barqaror birikmalardir. Nutq jarayonida fikrimizni faqat so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan, nutqqa tayyor holda kirib kelgandigan birliklardan ham foydalanamiz. Bu birliklar nutqimizni tasvirlabgina qolmasdan balki uning ma'noli va mazmunli, lo'nda, bo'yoqdor tarzda tasvirlaydi. Ma'lum bir tilning frazeologik boyligi shu til vakillarining mifalogik, tarixiy-etnografik, hissiy tuyg'ularini, madaniyati va urf odatini ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi, lingvistik va madaniy tomonidan tubdan farq qilishi uning mehmondo'stlikni ifodalovchi frazeologik birliklarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi qadim qadimdan mehmondo'st bo'lganligi bois mehmondo'stlikni ifodalovchi maqollari talaygina.

Til muloqot vositasi hamda kishilik jamiyatining asosiy hayot kechirish vositasidir, uni muloqotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, til jamiyat taraqqiyotida muhim ro'l o'ynaydigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Globallashuv jarayonida turli xil mamlakatlar o'rtasida xalqaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi xorijiy tillar borasidagi mukammal bilimga asoslangan. Mazkur bilim chet tildagi so'zlar va gaplarni to'g'ri qo'llash bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu xalq madaniyati va mentaliteti haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishni taqozo etadi. Muloqot davomida sodir bo'laётgan nojo'ya holatlardan qutulish uchun har bir ishtirokchi milliy-madaniy o'ziga xoslik alomatlari va xorijliklar nutqiy faoliyatining ijtimoiy me'yorlari talablariga hozir javob bo'lmog'i darkor. Ingliz, o'zbek va rus tillari bir oilaga mansub emas. Uchala xalqning madaniyati, urf-odatlarini, mentalitetini, dunyovoviy qarashlari o'rtasida deyarlicha farqni kuzatishimiz mumkin. Geografik joylashuv jihatidan ham bir biridan uzoq. Yana bir muhim jihati din va qadriyatlarini o'rtasidagi farqdir. Ingliz tilida uchraydigan deyarli barcha



mavzular o'zbek va rus maqollarida ham uchraydi. Faqatgina yuqoridagi faktorlar asosida bir tildagi maqollar ikkinchi tilga qaraganda miqdor jihatdan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Qardoshlik o'zida ijtimoiy-tarixiy, madaniy, adabiy axborot saqlaydi. Turg'un o'xshatishlar har ikki tilning tamomila o'ziga xos boyligi, xalq milliy-madaniy tasavvuri va an'alarini aks ettiruvchi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi muhtasham vosita sifatida juda katta etnopsixologik, madaniyatshunoslik ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Maxmudov N. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi .Til va adabiyot ta'limi . 2019 yil, 2-son.
2. Maxmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. - Toshkent :Ma'naviyat, 2013.
3. Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтик. -М.: Наука, 1979. -С. 225; Лебедова Л. Устойчивые сравнения русского языка. -Краснодар: Кубинский ГУ, 2003. -С. 3; Хакимзянов Ф. О словаре устойчивых сравнений татарского языка // Российская тюркология. -Москва-Казань, 2010. -№2. -С. 80.
4. Rajapova Malika Ahmadali qizi, Allegorical Means Specific to Oral Speech, European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612. Page 85-87

